

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.D.Baxronov</b>	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'rni.....	201
<b>H.S.Ergashev</b>	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi .....	207
<b>I.T.Boltaboyev</b>	
Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'rni.....	212
<b>Sh.O'.Ahrorova</b>	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni.....	216
<b>U.X.Kolmatov</b>	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari.....	220
<b>F.B.Rahmonova</b>	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili .....	225
<b>J.Saburov</b>	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri ....	230
<b>B.A.Pulatov</b>	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari .....	236
<b>S.S.Evaton</b>	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
<b>A.Sh.Raximov</b>	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi .....	245
SIYOSAT	
<b>Sh.Ismoilov</b>	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'naliш .....	249
<b>D.Sh.Mahkamov</b>	
Hakamlik sudi va davlat sndlari o'rtasidagi farqlar .....	252
<b>R.Nurimbetov</b>	
Shanaxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari .....	255
<b>B.X.Allamurodov</b>	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan) .....	258
<b>M.B.Nabiев</b>	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
<b>N.Madumarova</b>	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida .....	269
<b>A.A.Buriyev</b>	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'rni va bu boradagi xorijiy tajriba .....	273
<b>D.Mamadjonova</b>	
Siyosiy partiyaning faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari .....	277
<b>A.A.Ahrorqulov</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
TARIX	
<b>Бурхониддин Чалодиддин</b>	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
<b>M.T.Musaev</b>	
Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi .....	292
<b>R.A.Arslonzoda</b>	
Отражение литературной жизни Бухары в "воспоминаниях" Садриддина Айни .....	297



**SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI ISTIQBOLLARI: O'ZBEKISTON  
YONDOSHUVLARI**

**ПЕРСПЕКТИВЫ ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА:  
ПОДХОДЫ УЗБЕКИСТАНА**

**PROSPECTS OF THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION: UZBEKISTAN'S  
APPROACHES**

**Nurimbetov Raxmatulla**

s.f.f.d (PhD) Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi

*Annotatsiya*

*Maqolada Shanxay hamkorlik tashkilotining (SHHT) O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida tutgan o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Hozirgi bosqichda SHHT oldida turgan eng ustuvor masalalar uning faoliyatini takomillashtirish va isloq qilish ekanligi asoslanib, O'zbekistonning mazkur jarayonlarga nisbatan yondashuvlari batafsil yoritib berilgan.*

*Аннотация*

*В статье раскрывается роль и значение Шанхайской организации сотрудничества (ШОС) во внешней политике Республики Узбекистан. Исходя из того, что наиболее приоритетными вопросами, стоящими перед ШОС на современном этапе, являются совершенствование и реформирование ее деятельности, подробно освещены подходы Узбекистана к этим процессам.*

*Abstract*

*The article reveals the role and place of the Shanghai Cooperation Organization (SCO) in the foreign policy of the Republic of Uzbekistan. Based on the justification of the issue of reforming and improving the activities of the SCO as priority issues on the organization's agenda, Uzbekistan's fundamental approaches to this issue are revealed.*

**Kalit so'zlar:** SHHT, O'zbekiston, tashqi siyosat, SHHT islohoti, serqirrali ko'p tomonlama hamkorlik.

**Ключевые слова:** ШОС, Узбекистан, внешняя политика, реформирование ШОС, многостороннее сотрудничество.

**Key words:** The SCO, Uzbekistan, foreign policy, the SCO reform, multilateral cooperation.

**KIRISH**

Ochiqlik va konstruktivlikka asoslangan pragmatik tashqi siyosat yuritayotgan O'zbekiston Respublikasining ko'ptomonlama diplomatiyasida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning o'rni va roli ortib bormoqda. Ular bilan samarali muloqot va hamkorlik mamlakatimiz oldida turgan muhim tashqi siyosiy vazifalarni hal qilishga ko'maklashmoqda, mamlakatimiz va mintaqamizning barqaror rivojlanishiga qaratilgan muhim tashabbuslarni xalqaro ko'lamda ilgari surishga va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali xalqaro nufuzi va imijini ortishga xizmat qilmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida mamlakatimizning tashqi siyosatidagi ustuvor vazifalari qatorida "Hamkor mamlakatlar bilan hamda xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo'yicha muvozanatli, doimiy muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazish, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda hamda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish", shuningdek "Mintaqaviy tashkilotlar doirasida O'zbekistonning milliy manfaatlarini faol ilgari surish" ekanligi ta'kidlanadi.

Bunday tashkilotlar orasida Shanxay hamkorlik tashkiloti alohida ahamiyat kash etadi. Birinchidan, mamlakatimiz ushbu tuzilmaning 6 nafar ta'sischi davlatlaridan biri bo'lib, uning institutsional rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Ikkinchidan, qariyb yarim chorak davr ichida SHHT Markaziy Osiyoda "xavfsizlikni mustahkamlash orqali iqtisodiy rivojlanish" konsepsiysi asosida mintaqamizda strategik barqarorlikni va geosiyosiy muvozanatni

ta'minlashga ijobjiy hissa qo'shib kelmoqda. Uchinchidan, mazkur tashkilot O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi eng yaqin qo'shnilar, an'anaviy sheriklari Rossiya va Belarus, shuningdek Xitoy, Hindiston, Eron, Pokiston kabi global va mintaqada muhim ahamiyat kasb etuvchi mamlakatlarni o'z ichiga oлган (jami 9 nafar doimiy a'zo va 3 nafar kuzatuvchi davlat). Qolaversa, tuzilmada muloqot bo'yicha sherik maqomida ishtirok etuvchi mamlakatlar soni yanada ortib bormoqda - bugungi kunda ular 14 nafarni tashkil etadi. Bugungi kunda SHHT Yevroosiyo qit'asining eng katta ko'p tomonlama institutga aylangan. Ushbu kontekstda uning mamlakatimizning, ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama diplomatiyasi uchun o'rni va roli o'sishda davom etmoqda. To'rtinchidan, ko'p qutblilikka asoslangan yangi xalqaro munosabatlar tizimi shakllanayotgan bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy va madaniy-tarixiy jihatdan bir-biridan sezilarli farq qiluvchi mamlakatlarni muvaffaqiyatli birlashirtilgan Shanxay hamkorlik tashkilotiga bo'lgan siyosiy va ilmiy qiziqish tobora ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "bu tashkilot madaniy-sivilizatsion qarashlari turlicha, o'z tashqi siyosiy yo'naliшlari va milliy taraqqiyot modellariga ega mamlakatlarni birlashtira oлган o'ziga xos davlatlararo tuzilmadir. Tarixan qisqa davrda SHHT katta yo'lni bosib o'tib, global siyosiy va iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylandi".

Shu bilan birga, bugun SHHT katta o'zgarishlar oldida turibdi. Bir tomonidan, tashkilot tarkibining kengayib borishi uning tarkibida turli xil tarixiy-madaniy shart-sharoitlar, dirlar va sivilizatsyalar asosida shakllangan, taraqqiyot modellari va tashqi siyosiiy qarashlari bir-biridan farq qiluvchi mamlakatlar soni ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, tashkilotdagi ichki vaziyatni o'zgartirib, uning kun tartibidagi masalalarning ko'payishiga olib kelmoqda. Ikkinci tomonidan, zamonaviy xalqaro munosabatlardagi fundamental o'zgarishlar Shanxay hamkorlik tashkilotida oldiga o'z faoliyatini takomillashtirish va isloh qilish vazifalarini qo'yemoqda.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasi SHHT doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, uning salohiyatidan mamlakatimizning mintaqadagi roli va o'rnini yanada kuchaytirish, milliy va xavfsizlikni ta'minlash, tashkilotga a'zo davlatlar bilan savdo, iqtisodiy, transport va madaniy-gumanitar aloqalarni yanada kengaytirish kabi ustuvor vazifalarni hal etishda samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, Markaziy Osiyoda yetakchi davatlardan hamda SHHTning eng faol ishtirokchilaridan biri sifatida tashkilotning istiqboldagi rivojlanish trayektoriyalarini belgilab beruvchi islohot jarayonlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lismeni taqoza etadi.

Aslida O'zbekiston SHHT faoliyatini modernizatsiya qilish va takomillashtirishni faol qo'llab-quvvatlayotgan mamlakatlardan hisoblanadi. Aynan 2022-yil 16-sentabrdan Samarqandda bo'lib o'tgan tarixiy SHHT sammitida tuzilmaga a'zo mamlakatlar rahbarlarining "Shanxay hamkorlik tashkilotini takomillashtirish to'g'risidagi" qarori qabul qilingan edi. Shu ma'noda O'zbekistonning SHHTni isloh qilish masalalariga yondoshuvlari qanday ekanligi katta qiziqish uyg'otishi tabiiy. Bizningcha, ular quyidagilardan iborat.

Birinchidan, barcha tashkilotga a'zo davatlarning SHHT Xartiyasda o'z ifodasini topgan "Shanxay ruhi" tamoillariga qat'iy sodiqligini ta'minlash, ya'ni tashkilotning ta'sis hujjalariiga o'zgartirishlardan qat'iy nazar aynan mana shu tamoyillarni saqlab qolish.

Ikkinchidan, SHHTning bloklaridan xoli maqomini saqlab qolish, uning faoliyati istiqbolda ham uchinchi mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarga qarshi qaratilmasligi kerak. Ochiqroq aytilsa, O'zbekiston mazkur tuzilmani qandaydir siyosiy-harbiy yoki harbiy blokka aylantirish tarafdoi emas.

Uchinchidan, SHHTda barcha qarorlarni konsensus asosida qabul qilish tartibini o'zgartirmaslik. Tashkilot Xartiyasidagi konsensus tamoyilining mavjudligi juda muhim hisoblanib, u barcha mamlakatlarning tenghuquqligini belgilab beruvchi asosdir.

To'rtinchidan, SHHTdagi ichki yaxlitlikni kuchaytirish, a'zo davlatlar o'rtasida yaxshi qo'shnichilik, o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlash orgali keng hamkorlik uchun shart-sharoitlarni yaxshilash. Ma'lumki, tashkilotning ayrim a'zolari o'rtasida hanuz chegara va hududiy kelishmovchilar mavjud (masalan, Hindiston va Pokiston o'rtasida, Xitoy va Hindiston o'rtasida) va bu hamkorlik muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Beshinchidan, SHHTning uchinchi mamlakatlar va sherik xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan keng, ochiq va konstruktiv hamkorlikni qo'llab-quvvatlash.

**SIYOSAT**

Oltinchidan, tashkilot doirasida tuzilgan ishchi mexanizmlarni takomillashtirish bilan bir qatorda, istiqbolli hamkorlik yo'nalishlari (savdo, iqtisodiyot, transport, investitsiya, texnologiyalar, ekologiya va yashil taraqqiyot va boshqalar) yangi hamkorlik formatlarini shakllantirish.

Yettinchidan, SHHT doirasida mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan hamkorlikni kuchaytirish. Jumladan, O'zbekiston oxirgi yillarda yangi turdag'i xavf-xatarlar, xususan, kibermakondagi jinoyatlarga qarshi kurash masalalarida sho'aro hamkorligini kengaytirish va bunda SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasining vakolatlarining kengaytirishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surgan.

Sakkizinchidan, iqlim o'zgarishiga hamjihatlikda qarshi kurashish va yashil taraqqiyot sohasida SHHTning mustahkam va istiqbolga yo'naltirilgan kun tartibini shakllantrish. Ushbu o'ta dolzarb masalalar bugunga qadar tashkilot faoliyatida munosib o'r'in olmagan. Mazkur yo'nalish ayniqsa iqlim o'zgarishlaridan qattiq aziyat chekayotgan O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari uchun o'ta dolzarb hisoblanadi.

To'qqizinchidan, tashkilotning "yumshoq kuch" sohasidagi, yangi madaniyat, fan, ta'lif va turizm sohalaridagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish sohalaridagi ulkan salohiyatidan samarali foydalanish. Ta'kidlash joizki, SHHTning madaniy-gumanitar salohiyati juda katta, zero uning jo'g'rofiy makonida qadimiylar sivilizatsiyalar va madaniyat o'choqlari bo'lgan mamlakatlar joylashgan, ularning turizm sohasidagi imkoniyatlari juda keng. Qolaversa, 3,2 mlrd aholini o'z ichiga olgan tashkilot o'z salohiyatini faqatgina "yumshoq kuch" vositalari orqaligina to'liq ishga solishi mumkin.

**XULOSA**

Umuman olganda, ko'rinish turganidek, O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotni isloh qilish masalalariga yondoshuvlari ratsional va pragmatik bo'lib, bir tomonidan, o'tgan davr ichida muvaffaqiyatli rivojlanishini belgilab bergen asosiy tamoyillarning daxsizligini ta'minlash, va boshqa tomonidan – uning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda yangi ustuvor yo'nalishlarni aniqlash orqali serqirrali hamkorlikni ilgari surishga qaratilgan.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон -2030" Стратегияси тўғрисида"ги 11 сентябр 2023 йилдаги ПФ-158-сонли Фармони. ПФ-158-сонли Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Шанхай ҳамкорлик ташкilotining Самарқанд саммити: ўзаро боғлиқликдаги дунёда мулоқот ва ҳамкорлик" номли мақоласи. 12.09.2022 // <https://president.uz/uz/lists/view/5495>

3. Самарқанд саммити якунида салмоқли хужожатлар түплами имзоланди. 16.09.2022 // <https://www.president.uz/uz/lists/view/5544>